

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUXOLIKOVA NASIBA ALIJONOVNA

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI (FALSAFA
FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Abduxolikova Nasiba Alijonovna

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari (Falsafa fani misolida) 3

Абдухоликова Насиба Алижоновна

Теоретико-методологические основы развития медиаграмотности и информационной культуры студентов высших учебных заведений (на примере философии)..... 29

Abduxolikova Nasiba Alijonovna

Theoretical and methodological foundations of the development of media literacy and information culture of students of higher education institutions (on the example of philosophy) 59

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 62

**NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABDUXOLIKOVA NASIBA ALIJONOVNA

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING
MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATINI
RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODIK ASOSLARI (FALSAFA
FANI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Ped1143 sonli raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspu.uz.ilmiy-kengash) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) [manzillariga](#) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boltayeva Mohichehra Jamshid qizi

pedagogika fanlari doktori, dotsent,

Rasmiy opponentlar:

Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich

pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent

Siddiqov Ilyosjon Baxromovich

Falsafa fanlari doktori DSc, professor

Akramova Gulbahor Renatovna

pedagogika fanlari doktori DSc, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: _____, Namangan shahri, Yuksalish mavzesi _____-uy. Tel.: (998) 69 _____; faks: (998) 69 _____; e-mail: info@namsifl.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: _____, Namangan shahri, Yuksalish mavzesi _____-uy. Tel.: (998) 69 _____; faks: (998) 69 _____; e-mail: info@namsifl.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

M. M. Yakubbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, Pedagogika fanlari doktori (DSc)

A.V. Ermirzayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi,
pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

S. A. Misirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar
Raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc),
professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda talaba-yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy hayoti, o'quv faoliyati va shaxsiy rivojida mediasavodxonlik hamda axborot madaniyati alohida ahamiyat kasb etmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalarning keng tarqalishi talabalar ongida axborot oqimlarini tanqidiy qabul qilish, yolg'on va manipulyativ ma'lumotlardan himoyalash, shuningdek, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qilmoqda. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotning dolzarbligi raqamli axborot makoni va yoshlarning ma'naviy immuniteti o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish hamda uni pedagogik jarayonga integratsiya qilish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bundan kelib chiqadiki, oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish – zamonaviy ta'limning sifat ko'rsatkichlarini oshirish, yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish va ularni axborotlashgan jamiyatga muvaffaqiyatli moslashtirishning muhim shartidir.

Dunyoda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar, xalqaro loyihalar va ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Avvalo, UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan "Media and Information Literacy" konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya yoshlarni mustaqil ravishda axborotni topish, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanishga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi. Yevropa Ittifoqida "Digital Education Action Plan" dasturi doirasida talabalarning raqamli kompetensiyalarini, shu jumladan, media savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha izchil siyosat olib borilmoqda. AQSHda "Center for Media Literacy" tashkiloti faoliyati doirasida o'quvchilar va talabalar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Osiyo davlatlari, xususan, Yaponiya va Janubiy Koreyada mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish milliy ta'lim siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Masalan, Janubiy Koreyada "Smart Media Education" dasturi orqali talabalar axborotni izlash va tekshirish ko'nikmalariga o'rgatilmoqda. Xususan, AQSH, Kanada, Norvegiya, Germaniya, Shvetsariya, Fransiya va Singapur kabi rivojlangan mamlakatlarda raqamli ta'lim muhitida talabalarning informatsion tahdidlarga qarshi o'z-o'zini himoyalashning diagnostik-profilaktik tizimini yaratish va bu boradagi ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda talabalar orasida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, yoshlarning raqamli ko'nikmalarini oshirish, internet makonida tanqidiy fikrlash va ma'lumotlarni baholash qobiliyatini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuning uchun ham, "ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish

madaniyatini oshirish¹” vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Universitetlarda ta’lim jarayonida onlayn platformalar va raqamli kutubxonalar faol qo’llanilayotgani talabalarni keng axborot oqimlari bilan tanishtiribgina qolmay, ularni tahlil qilish, saralash va tanqidiy baholashga o’rgatmoqda. IT-parklar va “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida talabalar media resurslardan samarali foydalanish, yangi dasturlar ishlab chiqish va raqamli savodxonlikni oshirish imkoniyatiga ega bo’ldilar. Shu bilan birga, ayrim oliy ta’lim muassasalarida mediasavodxonlik bo’yicha maxsus darslar, tajribaviy loyihalar va tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son “Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrda 979-son “Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyatning istiqbolli yutuqlarini joriy qilishning samarali mexanizmlarini tatbiq etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 27-avgustda 545-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mavzuga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati bo‘yicha xorijiy izlanishlar keng ko‘lamli bo‘lib, ularni bir necha ilmiy maktablar doirasida ko‘rish mumkin. Jumladan, bu borada xalqaro amaliyotdagi “Kiber jinoyatlar to‘g‘risida”gi konvensiya, “Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to‘g‘risida”gi Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, Germaniyaning “Talabalarni himoyalash to‘g‘risida”gi, Litvaning “Voyaga yetmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta’siridan himoyalash to‘g‘risida”gi qonunlarini misol qilib keltirish mumkin²”. YUNESKO ta’kidlaydiki, media-axborot savodxonligi konsepsiyasi dunyoning barcha mamlakatlari fuqarolariga to‘la ma’noda ushbu asosiy inson huquqidan foydalanish imkonini beradi. YUNESKOning media va axborot savodxonligi to‘g‘risidagi nashrlarida ta’kidlanadiki, “media va axborot savodxonligini o‘zlashtirgan fuqarolar: 1) tegishli texnologiyalardan foydalangan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>
²105th Congress Report House of Representatives 2d Session 105 775 Child online protection act October 5, 1998.

holda axborot va mediakontentni olish, baholash, yaratish va tarqatish layoqatiga ega bo‘ladi”³.

Amerikalik olim D. Kellner va J. Sheyr “Tanqidiy media savodxonligi: asosiy tushunchalar, bahslar, tashkilotlar va siyosat” asarida mediasavodxonlikni kritik pedagogika bilan bog‘lab, talabalarni ommaviy axborot vositalaridagi mafkuraviy va manipulyativ xabarlarini tahlil qilishga o‘rgatish zarurligini ta’kidlaydilar. Kanadalik tadqiqotchi D. Buckingham “Media ta’limi: savodxonlik, o‘qish-o‘rganish va zamonaviy madaniyat” asarida yoshlarning media tajribasi va ta’lim jarayoni o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi. Finlyandiyalik olim Si. Kotilainen “Finlyandiya media savodxonligi ta’limi” asarida oliy ta’lim muassasalarida mediasavodxonlikni mustaqil fan sifatida emas, balki barcha fanlar bo‘yicha integratsiyalashgan yondashuv orqali rivojlantirish samarali natija berishini ta’kidlaydi. Britaniyalik olim L. Masterman mediasavodxonlik pedagogikasi bo‘yicha klassik asar hisoblangan “Ommaviy axborot vositalari haqida ta’lim berish” kitobida oliy ta’limdagi o‘qituvchilar va talabalar uchun media ta’limning didaktik asoslarini ishlab chiqib, mediasavodxonlikni demokratik jamiyatning asosiy elementi sifatida talqin qiladi. Avstraliyalik tadqiqotchi K. Vardle so‘nggi yillarda feyk yangiliklar, dezinformatsiya va misinformatsiya masalalarini chuqur o‘rganib, “Soxta yangiliklar. Bu murakkab masala” nomli tadqiqotida talabalar va yoshlar orasida axborot madaniyatini rivojlantirishni global xavfsizlik bilan bog‘lab ko‘rsatadi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mavzu doirasida bir qator o‘zbek olimlari ushbu yo‘nalishda turli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, ularning ishlarida mediasavodxonlikni oshirish, axborotdan samarali foydalanish, axborot madaniyatini rivojlantirish borasida nazariy-metodik yondashuvlar ilgari surilgan. Xususan, F.R. Madraximova, N.A. Abdukadirova, A. Abduqodirov, A. Pardayev, N. Taylakov, S. Tursunov, U. Begimqulov⁴ kabi tadqiqotchi-olimlar mediasavodxonlikni shakllantirishda ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish muhimligi, axborot madaniyatini rivojlantirishda nazariya va amaliyot uyg‘unligi lozimligi, raqamli axborot tizimlarining jamiyatda olib kelayotgan islohotlari va ularni samarali tatbiq etish mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etishgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish usullari, ta’lim oluvchilarda media kompetensiyani shakllantirish masalalarini A.A.Abduqodirov, A.H.Taylaqov, B.E.Qarshiyev, Sh.N.Taylaqova, N.R.Rustamova, S.I.Kulmamatov, S.S.Babadjanov, I.M.Rasulov, S.S.Babajanov va

³ Медиа-и информационная грамотность в обществах знания /Сост. Кузьмин Е.И., Паршакова А.В. — М.: МЦБС, 2013. —С. 29.

⁴ Мадрахимова Ф.Р. Олий таълим ташкилотлари талабаларида mediasavodxonlikni rivojlantirish. Педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Чирчиқ, 2022. 5- 8 бет.; Абдукадилова Н.А. Инглиз тили дарсларида mediasavodxonlikni shakllantirish. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Жиззах, 2021. – 41 б.; Абдуқодиров А., Пардаев А. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография. -Т.: Фан, 2009. – Б. 145., Тайлақов. Н. И. Узлуксиз таълим тизимини учун информатикадан ўқув адабиётлари янги авлодни яратишнинг илмий педагогик асослари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 160.; Турсунов С.К. Таълимда электрон ахборот ресурсларни яратиш ва уларни жорий қилишнинг методик асослари. Пед. фан. ном. дис. автореферати – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2011. – 26 б.; Бегимқулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Педагогика фанлари доктори. ... дисс. – Т., 2007. – Б. 3.

D.M.Teshaboyevalar⁵ tadqiq etishgan.

MDH davlatlarida bu mavzudagi ilmiy qarashlar XX asr oxirlari va XXI asr boshlarida intensiv rivoj topa boshladi. Xususan, L.S.Vigotskiy, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, V.V. Davidov, P.I. Pidkasiy, S.A. Smirnov, B.T. Lixachev, M.N. Skatkin, P.Y. Galperin, K.D. Ushinskiy⁶ kabi yirik rus pedagog-psixolog olimlari tomonidan ta'limda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish orqali talabalarda mustaqil fikrlash va tashabbuskorlik kompetensiyalarini shakllantirish, talabalarda axborot madaniyatini yuksaltirishda media vositalarining texnologik aspektlarini hisobga olish, axborotni ta'lim jarayonida maromi bilan taqdim etish, ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida eskidan yangi axborot elementlarini ajratish kabi jarayonlarni metodik asoslash kerakligini ta'kidlashadi. Shuningdek, mediasavodxonlikning tarkibiy va mazmun xususiyatlari hamda media kompetensiyasi va uni shakllantirish usullari N.P.Rijix, A.V.Fedorov, V.L.Kolesnichenko, N.Yu.Xlizova, E.V.Muryukina, Y.A.Stolbnikova, N.V.Chicherina, D.V.Zalagayev, P.S.Kotlyar kabi olimlar tomonidan o'rganilgan⁷.

Xorijiy tadqiqotchilarning pedagogik izlanishlarida mediata'lim, media savodxonlikni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq masalalar keng muhokama qilingan. Xususan, ilmiy adabiyotlarda mediata'lim va axborot madaniyati xususiyatlari R.Aufderheide, P.Grincey, A. Silverblatt, V.J.Potter,

⁵ Каршиев Б.Э. Жамият хавфсизлиги ва барқарорлигини таълимлашта медиатаълимнинг урни: PhD автореф. дисс. – Т., 2020.; Тайлакова Ш.Н. Ўқувчи-ешлар маънавиятини оммавий ахборот воситалари асосида такомиллаштириш: PhD дисс автореферати. – Т., 2018; Рустамова Н.Р. Умумий ўрта таълим муассасалари ўқувчилари медиамаданиятини ривожлантириш технологияси: DS дисс.автореферати. – Т., 2019; Кулмаматов С.И. Мустақил таълимни ташкил этишда компьютер технологияларидан фойдаланиш методикаси: П.ф.н. ... дис. автореф. – Гулистон: ГулДУ, 2008; Бабаджанов С.С. Педагогика олий таълим муассасалари талабаларнинг медиакомпетентлигини ривожлантириш технологияси: DS дисс автореферати.– Т., 2019; Расулов И. М. Развитие культуры проектирования студентов посредством компьютерных технологий: Автореф. дисс.... к.п.н. – Т.: ТГПУ, 2018.; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Докт. диссертация автореф. – Т.: УзДЖТУ, 2012.

⁶ Выготский Л.С. Психология искусства. – Москва: Искусство, 1995. – С. 46.; Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1997. – С. 24.; Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Москва: Педагогика, 1999. – С. 56.; Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – Москва: Просвещение, 2006. – С. 37.; Пидкасистый П.И. Педагогика: Учебник для вузов. – Москва: Педагогика, 2006. – С. 84.; Смирнов С.А. Педагогическая технология. – Москва: Академия, 2003. – С. 119.; Лихачев Б.Т. Педагогика: Курс лекций. – Москва: Луч, 1998. – С. 64.; Скаткин М.Н. Общие методические принципы обучения. – Москва: Просвещение, 2006. – С. 39.; Гальперин П.Я. Формирование умственных действий и понятий. – Москва: Академия, 2002. – С. 17.; Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. – Москва: Педагогика, 1998. – С. 203.

⁷ Рыжих Н.П. Медиаобразование студентов педагогического вуза на материале англоязычных экранных искусств: Автореф. дисс. ... к.п.н. –Ростов-на-Дону: Таг.ГПИ, 2006; Федоров А.В. Медиакомпетентность личности: от терминологии к показателям // Инновации в образовании. 2007, № 10. – С. 75-108; Колесниченко В.Л.Становление и развитие медиаобразования в Канаде: Автореф. дисс. к.п.н. – Ростов-на-Дону: ТГПИ, 2007.; Хлызова Н. Ю. Педагогические условия формирования медиа- компетентности вторичной языковой личности: Дисс. ... к.п. н. – М.: 2001; Мурюкина Е.В. Формированиемедиакультуры старшеклассников: На материале кинопрессы: Автореф. дисс.... к.п.н. – Белгород, 2005; Столбникова Е.А. Развитие критического мышления студентов педагогического вуза в процессе медиаобразования: На материале рекламы: Дисс. ... к.п.н. – Ростов-на-Дону: Таг.ГПИ, 2005; Чичерина Н.В. Концепция формирования медиаграмотности у студентов языковых факультетов на основе иноязычных медиатекстов: Дисс. д.п.н. –СБП, 2008; Залагаев Д. В. Развитие медиаграмотности учащихся в процессе обучения информатике: Автореф. дисс.... к.п.н. – Омск: ОГПУ. 2005; Котляр П.С. Социальные предикаты новомедийного субъекта в дискурсе медиаграмотности: Автореф. дисс. ... канд. философских наук. – Казань: Институт социально-философских наук и массовых коммуникаций Казанского (Приволжского) федерального университета, 2018.

R.Hobbs, T.N.Le-Van, P.Gilster, R.Kubey va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁸. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish masalasi jahon miqyosida bir qator ilmiy izlanishlarda keng o'rganilgan. Jumladan, xorijiy tadqiqotchilardan D. Bakingem, L. Masterman, G. Jenkinz, R. Xobbs, U.J. Potter, M. Maklyuen, G. Reyngold, K. Lenkshir va M. Knobel, D. Fridman, J. Xartli⁹ kabilar ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etish, talabalarining media kontentdan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda ularda axborotni tanqidiy tahlil qilish madaniyatini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ularning tahlillari shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlik nafaqat texnik yoki texnologik bilim va ko'nikmalarni, balki keng ma'nodagi axborot madaniyatini shakllantirish, jamiyatda axborot oqimlarini boshqarish, xususan, yosh avlodda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va axborotni tanqidiy baholash malakalarini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat pedagogika institutining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirishning ijtimoiy-pedagogik Konsepsiyasi" (2022-2030 йиллар) mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritidgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari talabalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchalarini aniqlashtirish, ularning falsafiy, pedagogik va psixologik mazmunini izohlash;

xorijiy oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish tajribasini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlarini ko'rsatish;

talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va baholash ko'nikmalarini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni (ijtimoiy, texnologik, madaniy) o'rganish;

⁸ Aufderheide P. Media Literacy.// A Report of the National Leadership Conference on Media Literacy. – Aspen Institute, Communications and Society Program, 1992; Greenway P. Media and Arts Education: A Global View from Australia. In: Media Literacy in the Information Age. – New Brunswick and London: Transaction Publishers, 1997. P.187-198; Silverblatt A. Media literacy: Keys to interpreting media messages. – Westport, CT: Praeger, 2001; Potter W. J. Media literacy. –Thousand Oaks, CA: Sage, 2001, 2008; Hobbs R. The state of media literacy education. //Journal of Communication. 2005, No 55. P. 865-871; Ле-Ван Т. Н. Формирование информационной культуры школьников в процессе анализа рекламного текста: Дисс. к.п.н. – М.: МПГУ, 2005; Gilster P. Digital literacy . – New York: Wiley, 1997; Kubey R. MediaLiteracyintheInformationAge. – London: NewBrunswick, 1997.

⁹ Buckingham B. Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture. – Cambridge: Polity Press, 2003. – P. 45.; Masterman L. Teaching the Media. – London: Routledge, 1995. – P. 22.; Jenkins H. Confronting the Challenges of Participatory Culture: Media Education for the 21st Century. – Cambridge: The MIT Press, 2009. – P. 53.; Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. – Thousand Oaks: Corwin, 2011. – P. 68.; Potter W.J. Media Literacy. – Los Angeles: SAGE Publications, 2016. – P. 110.; McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1994. – P. 56.; Rheingold H. Net Smart: How to Thrive Online. – Cambridge: The MIT Press, 2012. – P. 33.; Lankshear C. and Knobel M. New Literacies: Everyday Practices and Classroom Learning. – London: McGraw-Hill Education, 2011. – P. 75.; Freedman D. The Contradictions of Media Power. – London: Bloomsbury, 2014. – P. 67.; Hartley J. Digital Futures for Cultural and Media Studies. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2012. – P. 92.

oliy ta'lim jarayonida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va ularni ta'lim dasturlariga integratsiya qilish;

talabalarining mavjud mediasavodxonlik va axborot madaniyati darajasini aniqlash uchun diagnostik testlar va empirik tadqiqotlar o'tkazish;

talabalarda raqamli fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni asoslash va amaliyotda sinovdan o'tkazish.

Tadqiqotning obyekti oliy ta'lim muassasalari talabalari va ularning mediasavodxonlik hamda axborot madaniyatini rivojlantirish jarayonidir.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalari talabalari mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirishga oid pedagogik shart-sharoitlar, metodlar, vositalar va nazariy-metodik yondashuvlar majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada nazariy tahlil, qiyosiy taqqoslash, modellashtirish, diagnostik-so'rov, pedagogik kuzatuv, loyihalashtirish, prognostik-ekspert baholash, pedagogik eksperiment kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalari talabalari mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirishning didaktik tuzilmasi falsafiy fanlarning axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari mediata'limning moslashuvchanligi kabi sifatlar bilan qayta aloqasining identivligini belgilash orqali aniqlashtirilgan ;

falsafa fanini o'qitishning tashkiliy-didaktik shart-sharoitlarini modifikatsiyalash oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonligini baholashning pedagogik-diagnostikasi, axborotlarga skeptik yo'nalganlik darajasini bevosita uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarining mediasavodxonlik hamda axborot madaniyatini rivojlantirishning tizimli-funksional modelining amaliy komponenti falsafiy fanlarni integral o'qitish asosida axborotlar ustida ishlashga yo'naltirilgan germeneytik va kontekstli texnologiyalarning natijaviyligini belgiyovchi diagnostik usullar asosida takomillashtirilgan ;

talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va baholash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ijtimoiy-pedagogik, psixologik-pedagogik va axloqiy-pedagogik omillar hamda ularning analitik tafakkur va kommunikativ madaniyat bilan bog'liqligining monitoringi muloqot jarayoni bilan internal kooperatsiyalashuv darajasi valentligi asosida takomillashtirilgan;

talabalarining mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan reproduktiv topshiriqlari gumanitar fanlar bilan integratsiyalash orqali mediata'lim, mediasavodxonlik tushunchalari mediata'limning konsepsiyasi va strategiyasi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv va usullarning ilmiy-metodik asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilib, vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari talabalarida mediasavodxonlik tushunchasi va uning axborot madaniyatini shakllantirishdagi falsafiy-epistemologik asoslarini aniqlashtirilganligi, talabalar tomonidan media va axborot oqimlariga tanqidiy yondashuvni rivojlantirishda falsafa fanining aksiologik va gnoseologik tamoyillariga asoslangan nazariy model ishlab chiqilganligi, oliy ta'lim jarayonida axborot madaniyatini rivojlantirishda talabalar ongini shakllantiruvchi va tanqidiy tafakkurni kuchaytiruvchi didaktik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar tizimlashtirilganligi, shuningdek, mediasavodxonlikning nazariy mohiyatini talabalarning axborotga bo'lgan ongli munosabati bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonda qo'llashga mos bo'lgan tavsiyalar va metodik ko'rsatmalarni o'z ichiga olganligi, falsafa fanini o'qitishda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan amaliy mashg'ulotlar, keys-stadilar, interaktiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan o'quv texnologiyalarini qo'llash imkoniyati yaratilganligi, talabalar orasida soxta axborotni aniqlash, axborot manipulyatsiyalarga qarshi immunitetni shakllantirishga qaratilgan amaliy yo'nalishdagi o'quv vositalari va metodik ishlanmalar ishlab chiqilganligi, shuningdek, falsafa fanini axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan integratsiyalash orqali mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini falsafa fani vositasida takomillashtirishga doir tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirishning didaktik tuzilmasi falsafiy fanlarning axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari mediata'limning moslashuvchanligi kabi sifatlar bilan qayta aloqasining identivligini belgilash orqali aniqlashtirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-son buyrug'i, 557408-raqamli guvohnoma). Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyati kompleks ravishda rivojlantirilgan;

falsafa fanini o'qitishning tashkiliy-didaktik shart-sharoitlarini modifikatsiyalash oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonligini baholashning pedagogik-dagnostikasi, axborotlarga skeptik yo'nalganlik darajasini bevosita uyg'unlashtirish asosida takomillashtirishga doir ilmiy yangiliklardan "Mantiq asoslari" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-aprelda 136-son buyrug'i, 664663-raqamli guvohnoma ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyati

kompleks ravishda rivojlantirilgan;

talabalarining mediasavodxonlik hamda axborot madaniyatini rivojlantirishning tizimli-funksional modelining amaliy komponenti falsafiy fanlarni integral o'qitish asosida axborotlar ustida ishlashga yo'naltirilgan germenetik va kontekstli texnologiyalarning natijaviyligini belgiovchi diagnostik usullar asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-apreldagi 136-son buyrug'i, 511474-raqamli guvohnoma ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish mazmuni zamonaviy talablar asosida takomillashtirilgan.

talabalarda ijodiy va tanqidiy fikrlash, axborotni saralash va baholash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi ijtimoiy-pedagogik, psixologik-pedagogik va axloqiy-pedagogik omillar hamda ularning analitik tafakkur va kommunikativ madaniyat bilan bog'liqligining monitoringi muloqot jarayoni bilan internal kooperatsiyalashuv darajasi valentligi asosida takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan Namangan davlat chet tillari institutida 2023-2024-yillarda bajarilgan "Erasmus+ Capacity Building Project 101129076 EMPOWER: Women Entrepreneurship, Empowerment, employability and self-confidence" nomli loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Namangan davlat chet tillari instituti tomonidan 2025-yilning 16-iyunda berilgan 1363-03-son ma'lumotnoma). Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyati kompleks ravishda rivojlantirilgan;

talabalarining mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan reproduktiv topshiriqlari gumanitar fanlar bilan integratsiyalash orqali mediata'lim, mediasavodxonlik tushunchalari mediata'limning konsepsiyasi va strategiyasi asosida takomillashtirilga doir tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Ta'lim va ma'rifat" muharririyatining 2023-2025 yillarda efirga uzatilgan "Zamonaviy ta'lim", "Axborot madaniyati", "Raqamli dunyo" ko'rsatuvlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" ijodiy birlashmasi» davlat muassasasining 2025-yil 20-iyundagi 05-09-963-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyati kompleks ravishda rivojlantirilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertasiya ishi natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot ishining muhim natijalari yuzasidan 1 ta monografiya, O'zbekiston Oliy Attestasiya Komissiyasining doktorlik Dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, ulardan 12 tasi respublika jurnallarida, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, 4 ta bob, 12 ta paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 205 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ishning aprobatsiyasi natijalari, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta‘lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish nazariy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchalarining tarixi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, mediasavodxonlik va axborot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlari (mediasavodxonlik va axborot manbalaridan foydalanish kompetensiyalari, axborot xavfsizligi), mediasavodxonlik va axborot madaniyatining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda Oliy ta‘lim muassasalarida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati masalalari yoritilgan.

Mediasavodxonlik tushunchasi zamonaviy toifadagi tushuncha bo‘lsa-da, uning ilk ildizlarini an‘anaviy matbuot, radio, televideniya vujudga kelishi bilan bog‘lash mumkin. Axborot madaniyati esa, avvalo, umumiy madaniyat tushunchasining bir tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, unga texnologiyalar taraqqiyoti bilan bog‘liq yangi pog‘onalar qo‘shib borilgan. Shu bilan birga ilmiy jihatdan tadqiq etilishi turli bosqichlar orqali rivojlanib kelgan.

To‘liq tushunchani ochib berish uchun, avvalo mediasavodxonlik tushunchasining tarixiy rivojlanishi va shakllanish bosqichlari haqida to‘xtalamiz. Mediasavodxonlik tushunchasi g‘arb ilmiy tadqiqotchilarining asarlarida ilk bor XX asr boshlarida uchraydi. Ayniqsa, matbuot (gazeta-jurnallar) ning ta‘siri kuchaygan bir davrda jamiyat a‘zolarining media axborotlarini tanqidiy tahlil qilish lozimligi aniqlanadi. Shu bilan birga, radiokommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib, televideniye paydo bo‘lishi bilan turli axborot kanallaridan unumli, ongli ravishda foydalanish masalasi dolzarblashgan. Hozirgi kunda esa internet va raqamli vositalar ilgari surgan imkoniyatlar mediasavodxonlik tushunchasining yanada boyishiga, uning qamrov doirasi kengayishiga sabab bo‘ldi.

Mediasavodxonlik tushunchasi chinakam ilmiy asosda birinchi bor Amerika Qo‘shma Shtatlarida ilmiy bahslar markazida paydo bo‘lganligi qayd etiladi. Xususan, XX asr o‘rtalarida jamiyatda radio, televideniye kabi ommaviy axborot vositalarining ta‘siri orta boshlaganligi mediasavodxonlikka bo‘lgan qiziqishni oshirdi¹⁰. Ayrim tadqiqotchilar mediasavodxonlikni avvalo telesavodxonlik sifatida tushunishgan, chunki televideniye audiovizual axborot uzatuvchisi sifatida eng katta ta‘sir kuchiga ega edi. Keyinchalik radio, kino, matbuot kabi boshqa

¹⁰ Potter W. J. Media literacy. – Sage publications, 2018.

manbalar bilan birgalikda axborot faktisini tanqidiy tushunish, tahlil qilish, baholash kabi ko‘nikmalar ham mediasavodxonlik doirasiga kiritila boshlanadi.

G‘arb ilmiy adabiyotida mediasavodxonlik tushunchasi turli ta’rif va yondashuvlar asosida sharhlanadi. Masalan, Buyuk Britaniyada, Kanadada hamda AQShda mediasavodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha alohida ta’lim dasturlari yaratilgan. Shu jumladan, Kanadada 1980–1990-yillarda maktab ta’lim tizimida mediasavodxonlik bo‘yicha fanlar joriy qilingan. Bu jarayonda ilk tadqiqotlar nega aynan o‘quvchilarga axborotni tushunish, tahlil etish, tanqidiy yondashuv ko‘nikmalarini o‘rgatish zarurligi bilan izohlanadi¹¹. G‘arbda mediasavodxonlik tushunchasi faqatgina axborotni tushunish yoki qabul qilish bilan bog‘lanib qolmasdan, balki axborotni yaratish, tarqatish, undan axborot iste’molchisi sifatida to‘g‘ri foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, mediasavodxonlik – media muhitda mustaqil pozitsiyani shakllantirish, axborot faylasufchasini takomillashtirish, o‘zaro bog‘liq axborot majmuini tahlil qilish, saralash, undan mustahkam yondashuv orqali foydalanish ko‘nikmalarini ifodalaydi¹².

Mediasavodxonlik tushunchasi g‘arb manbalarida rivojlanib, ilmiy atama sifatida keng tarqalgan bo‘lsa-da, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda bu tushunchaning rasmiy ilmiy doirada kelib chiqishi nisbatan kechroq davrga to‘g‘ri keladi. Biroq bu yerda ham mediasavodxonlikka oid qarashlar ancha avvalroq, teleradiostansiyalarning, matbuot nashrlarining taraqqiyoti bilan bir qatorda shakllangan deyish mumkin. O‘zbekistonda mediasavodxonlik masalalariga qiziqish XX asr oxirlarida rivojlana boshlagan. Xususan, ilk marotaba bu yo‘nalishda ilmiy maqolalar “Jurnalistika” sohasi olimlari tomonidan yozila boshlangan. Masalan, Z. A. Rasulova “Yosh avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalarining o‘rni” nomli maqolasida media axborotlarni qabul qilishda tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarining ahamiyati haqida so‘z yuritadi¹³. Bunda tushuncha mediasavodxonlik deb nomlanmagan bo‘lsa-da, “axborotni tanqidiy qabul qilish” mazmunidagi yondashuv dolzarbligi ta’kidlangan. Shuningdek, O‘. Karimov “Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari” nomli asarida mediasavodxonlik tushunchasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Muallif mediasavodxonlikni zamonaviy axborot jamiyatida shaxsning axborotni anglash, ishlatish, tahlil qilish va shu asosda qaror qabul qilish qobiliyati sifatida ko‘radi¹⁴. Ushbu asarda ilmiy adabiyotlar bilan tanishish davomida mediasavodxonlik axborot madaniyati tushunchasining bir yo‘nalishi sifatida ko‘rilayotganini e’tiborga olish mumkin.

Mediasavodxonlik tushunchasi bir qator ilmiy adabiyotlarda turlicha

¹¹ Buckingham D. Children and media: A cultural studies approach //The international handbook of children, media and culture. – 2008. – C. 219-236.

¹² Napoli P. et al. Understanding media diversity using media ecosystem analysis //Report. Media Policy Initiative, New America Foundation. https://www.academia.edu/7375012/Understanding_Media_Diversity_Using_Media_Ecosystem_Analysis. – 2012.

¹³ Расулова З. А. Ёш авлодни тарбиялашда оммавий ахборот воситаларининг ўрни //Современное образование (Узбекистан). – 2021. – №. 6 (103). – С. 11-17.

¹⁴ Каримов Ў., Каримова Г. Ахборот оқими ва ахборот маданиятининг шаклланиш тенденциялари //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 743-750.

ifodalanadi. Shu bilan birga, umumiy tarzda qabul qilingan ta'rif shundayki, mediasavodxonlik – bu axborotni maqsadga muvofiq ravishda topish, saralash, baholash, tushunish va foydalana olish ko'nikmasidir¹⁵. Yoshlar orasida bu ko'nikmalarni rivojlantirish, eng avvalo, ta'lim muassasalarida mediasavodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan dastur va loyihalarni ko'paytirish bilan bog'liq. Chunki bilim beruvchi tizim mediasavodxonlik asoslarini rang-barang trenajyorlar va amaliy seminarlar yordamida tushuntirishi lozim. Bu jarayonda malakali pedagoglar, axborot texnologiyalari mutaxassislari hamkorligi muhimdir. Shu tariqa jamiyatning har bir a'zosi turli axborot manbalari bilan muloqotda info-strategik yondashuvni amalga oshirish salohiyatiga ega bo'ladi.

Mediasavodxonlikni shakllantirishda axborot manbalarining xilma-xilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda axborot manbalari nafaqat an'anaviy OAV – televizor, radio, gazetalar bilan cheklanib qolmaydi, balki ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, bloglar, onlayn nashrlar orqali turli formatda taqdim etilayotgan ma'lumotlarni ham qamrab olgan. Shu sababli, axborotni qabul qilishda odamlar (ayniqsa, yoshlar) har xil ko'rinishdagi matn, video, audio, grafik ma'lumotlarni saralay bilishlari lozim. Masalan, internet jurnalistikasida veb-saytlar, bloglar yoki onlayn nashrlar orqali tarqatilayotgan ma'lumotlarning ishonchliligi va holisligi ko'pincha shubha ostida qolishi mumkin. Bunda axborot manbani tekshirish, ko'rsatilgan faktlarni boshqa manbalar bilan solishtirish kabi ko'nikmalar ishga tushadi¹⁶.


Mediasavodxonlik va axborot madaniyati tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, mediasavodxonlik axborot bilan ishlash malaka va ko'nikmalarini nazarda tutsa, ikkinchi tomondan, axborot madaniyati insonda axborotni axloqiy, huquqiy va iqtisodiy jihatdan qanday ishlatish lozimligini hamda uning xavfsizlik jihatlarini yoritib beradi. Axborot madaniyatili shaxs butun axborot makonida mas'uliyat bilan harakat qiladi, axborot qoidalarini buzmaslikka, yolg'on ma'lumot tarqatmaslikka, mualliflik huquqlarini buzmaslikka intiladi¹⁷. Shu bois axborot madaniyati yuqori bo'lgan soha vakillari media maydonda ham natijadorlikka erishadi. Zero, har qanday axborotni qabul qilish yoki uni tarqatishda inson etika, huquq, axborot xavfsizligi qoidalariga amal qilish zaruratini chuqur anglaydi.

Mediasavodxonlikka erishish uchun bir nechta asosiy kompetensiyalar shakllanishi lozim (1-rasm)

¹⁵ Камолов Х. медиа саводхонлик, унинг замонавий касбларни пухта эгаллашдаги аҳамияти //Теоретические аспекты становления педагогических наук. – 2024. – Т. 3. – №. 13. – С. 159-161.

¹⁶ Marasulova Z. A., Eshnazarova M. Y., Tolibjonova S. N. pedagogning raqamli kompetentligi va raqamli kompetentlik modellari //zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. – 2024. – т. 1. – №. 1. – с. 64-66.


¹⁷ Yadgarova I. D., murodova G. B. raqamli texnologiyalarining mohiyati va unga doir ayrim masalalar tahlili //Inter education & global study. – 2025. – №. 1. – С. 178-186.



1-rasm. Mediasavodxonlikdan foydalanish kompetensiyalari

Oliy ta'lim tizimida media va axborot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish, eng avvalo, ta'lim jarayonini tubdan isloh qilishni taqozo etadi. Talaba nafaqat umumiy axborotni eshitib yoki o'qib, uni passiv ravishda qabul qilishi, balki mazkur axborotni tahlil qilishi, turli manbalar orasida taqqoslash ishlarini amalga oshirishi, erkin fikr bildirishi va munozaralarda qatnasha olishi lozim. Zamonaviy oliy ta'lim dasturlarida ko'proq interaktiv uslublariga e'tibor qaratish, talaba ishtirokiga asoslangan mashg'ulotlarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda olib borish, raqamli texnologiyalar orqali bilim berish mexanizmlarini takomillashtirish o'ta muhimdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari media savodxonlik, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat kabi yo'nalishlarda ham bilim hamda ko'nikmaga ega bo'lishi kerak. Bu jarayon orqali u yoki bu masala haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, axborotlarning ishonchli-ishonchsiz tomonlarini bir-biridan ajrata olish ko'nikmalari shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy axborot jamiyatida talabalarni global raqobatbardoshlikka tayyorlash va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu kompetensiyalar mediasavodxonlik va axborot madaniyatining asosiy tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi va quyidagi sabablarga ko'ra zarur hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati.

Dissertatsiyaning “Falsafa fanini o‘qitishda mediasavodxonlikni rivojlantirishning metodik va pedagogik asoslari” deb nomlangan ikkinchi bobida Falsafa fanini o‘qitish jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilish tamoyillari, axborot texnologiyalari va internet resurslaridan foydalanish metodikasi, interaktiv uslublar va multimedia vositalari orqali falsafa fanini boyitish va Falsafa darslarida mediamajmua bilan ishlash metodikasi: keyslar, multimedia, elektron manbalar ilmiy tahlil etilgan.

Falsafa fanini o‘qitish jarayonida mediasavodxonlik elementlarini integratsiya qilishda bir necha metodik asoslarga tayanamiz. Tushuncha shakllantirish metodi, muammoli vaziyat yaratish metodi, interaktiv loyihalar metodi, audio-video podkastlar, virtual muhokamalar, interaktiv testlar va o‘yinlar va boshqa metodik asoslarga tayanilgan.

Internet resurslaridan ilmiy-ta'lim jarayonida foydalanish uchun bir qancha metodik yondashuvlar mavjud. Bu yondashuvlarning har biri turli sharoitlar va maqsadlarga mos ravishda tanlanadi. Internet resurslari deganda faqatgina veb-saytlar emas, balki onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar bazasi, elektron jurnallar, o‘quv video kurslari, vebinarlar, bloglar, forumlar, virtual laboratoriyalar kabi ko‘plab turlar nazarda tutiladi¹⁸. Internet cheksiz axborot manbayi bo‘lsa-da, unda turli yolg‘on yoki ishonchsiz manbalar ham uchraydi. Shunga ko‘ra, o‘quvchilarga ishonchli manbalarni aniqlash (masalan, davlat tashkilotlari rasmiy sahifalari, ilmiy jurnallar saytlari, universitetlarning rasmiy veb-saytlari), kalit so‘zlar bilan axborot izlash, manbalarni bir-biri bilan taqqoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur. Bunda maxsus turli onlayn kurslar (Coursera, EdX kabi) yoki kutubxona

¹⁸ Oshilova G. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan ta'lim jarayonlarida foydalaniш imkoniyatlari //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 4. – №. 1.

portallaridan (Google Scholar, ResearchGate, JSTOR kabi) foydalanishni tashkil etish maqsadga muvofiq. Pedagoglar esa ushbu jarayonni boshqarib, talabalar tomonidan olib kelinayotgan manbalarni ilmiy nuqtai nazardan baholab, ularni talabalar bilan birgalikda muhokama qilib borishi lozim¹⁹.

Bugungi kunda ko‘plab ta‘lim muassasalarida vebinarlar o‘tkazish amaliyoti shakllangan. Bu jarayonda videoaloqa orqali bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli o‘quvchilar yoki talabalar bilan suhbatlasha olish imkoniyati mavjud. Masofaviy ta‘limni joriy etayotgan muassasalar zamonaviy talablarni qondirish uchun maxsus platformalardan foydalanishi lozim. Vebinarlarni o‘tkazishda metodik jihatdan oldindan rejalashtirish: tayyorlangan slaydlar, tartibli prezentativ materiallar, interaktiv savol-javoblar, guruhda ishlash elementlari hamda qayta aloqa (feedback) mavjud bo‘lishi kerak. Mazkur jarayon xoh onlayn, xoh oflayn bo‘lsin, ta‘lim sifatiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi²⁰.

Kundalik darsdan tashqari, o‘quvchilarga ma‘lum bir soha bo‘yicha elektron kurslardan foydalanish imkonini yaratish maqsadga muvofiq. Chunki global platformada o‘quvchi mustaqil ravishda mavzularni o‘rganishi, xorijiy mutaxassislar tajribasidan bahramand bo‘lishi mumkin. Bu jarayonda pedagog o‘quvchining qay darajada kursni puxta o‘zlashtirayotgani, qaysi mashqlarni bajara olayotganini nazorat qilishi lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilardan elektron hisobot taqdim etishni talab qilish, forumi orqali refleksiya tashkil qilish ham muhim. Internet resurslaridan yana bir unumli foydalanish usuli – bu tarmoqli loyihalar (network projects) tashkil qilishdir. Masalan, biror soha bo‘yicha ilmiy yoki amaliy loyiha yaratishda turli hududlarda yashayotgan talabalar onlayn rejimda birlashib ishlashlari mumkin.

Falsafa fanini shu tarzda yoritib berishda interaktiv uslublar dan tashqari, reaktiv usullar ham mavjud. Lekin reaktiv usullar ko‘proq talaba yondashuvida qo‘llaniluvchi, ularni o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z-o‘zini baholashga undaydigan uslublardir. Biroq bu reaktiv usullar interfaol o‘qitish bilan integratsiya qilingandan keyin ancha samarali bo‘ladi. Masalan, talaba mustaqil ravishda bir istilohni tadqiq qiladi, tarixiy kontekstda ko‘radi, videolarini ko‘rib chiqadi, keyin esa guruh bahsida bu fikrlarni ilgari suradi. Natijada shaxsiy fikr – jamoaviy muhokama – xulosa shaklida amalga oshgan ongli ta‘lim quriladi. Shunday qilib, “Interaktiv uslublar va multimedia vositalari orqali falsafa fanini boyitish” maqsadi pedagogika nazariyasi va amaliyotida muhim o‘rin tutadi. Zero, falsafa – insoniyat tarixida shakllangan eng qadimiy ilmlardan biri sifatida nazariy asoslarga ega, biroq uning amaliy (amaliy) jihatlarini ko‘rishi, undan foydalanishi, shaxsiy pozitsiyani belgilashi uchun yaratilgan imkoniyatlar talabalar dyoyoqarashiga tasir etadi. Interaktiv uslublar esa ana shu nazariy bazani jonlantiruvchi, talabalarni mustaqil fikrlashga chorlovchi metod sifatida juda ham zarur hisoblanadi. Multimedia vositalari esa zamonaviy ta‘lim texnologiyasining ajralmas qismi

¹⁹ Турсунова У. А. Таълимда ахборот коммуникация технологиялари //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

²⁰ Begbutayev A. Таълимда инновацион технологиялар жамият ривожининг пойдевори //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.

bo‘lib, nazariy bilimlarning aniq ko‘rgazmali misollar bilan birlashtirilishida ko‘prik vazifasini bajaradi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish texnologiyalari va tashkiliy mexanizmlari”** deb nomlangan uchinchi bobida Oliy ta‘lim muassasalarida mediasavodxonlikni rivojlantirishda institutsional yondashuvlar, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishda ilg‘or xorijiy tajriba, media savodxonlik jarayonini boshqarishda innovatsion pedagogik texnologiyalar masalalari hamda Oliy ta‘lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish modellari keng yoritilgan.

Institutsional yondashuv esa mediasavodxonlikni rivojlantirishda muayyan institutsiyaviy mexanizmlardan foydalanish, davlat siyosatlarini ishlab chiqish va turli ta‘lim muassasalarida yengil integratsiyalash mumkin bo‘lgan aniq metodik yo‘nalishlarni ta‘minlashdan iborat.

Institutsional yondashuvlar mediasavodxonlikni bir martalik yoki qisqa muddatli mashg‘ulotlar bilan cheklab qolmay, uzoq muddatli dasturlar, kurslar, akademik yo‘nalishlar va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni qamrab olishni taklif qiladi. Shu jarayonda ta‘lim muassasalari, xususan, universitetlar o‘quv rejalariga media-ta‘lim elementlarini bosqichma-bosqich kiritib borishi ularning media muhitda raqobatbardosh bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Metodik jihatdan esa, mediasavodxonlikni rivojlantirishda ilmiy tadqiqot usullari, keys-stadi, rol o‘yinlar (role-play), projekt asosida ta‘lim va elektron portfolio kabi zamonaviy yondashuvlar samarali hisoblanadi. Jumladan, keys-stadi isulida talabalar haqiqiy hayotdan olingan media situatsiyalar bilan tanishadi, muammoli vaziyatni tahlil qiladi, maqsadli guruhlar uchun axborotni qanday taqdim etish yoki tushunish kerakligi haqida bahs-munozara qiladi.

Projekt asosida ta‘limda esa talabalar bir necha hafta yoki oy davomida jamoaviy ravishda media loyihani rejalashtiradilar, media kontentni yaratish, tahrirlash va taqdim etish jarayonlarida qatnashadilar. Bu metodik yondashuvlar talabalarni media muhitda har tomonlama faol bo‘lishga, axborotni xolis ko‘rib chiqishga, tanqidiy fikr yuritishga o‘rgatadi.

Xorijiy tajribalardan xulosa qilish mumkinki, mediasavodxonlikni rivojlantirishda siyosiy-huquqiy asoslar ham alohida o‘rin tutadi. Yolg‘on axborot tarqatganlik uchun jarimalar, yoki soxta ma‘lumotlar bilan ommani chalg‘itganlik uchun jazo choralarini belgilash, axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus tuzilmalar tashkil etish kabi choralar ko‘pgina mamlakatlarda qonun bilan mustahkamlanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar aytganda, ta‘lim jarayonini interfaol, ilg‘or, mustaqil uylashga yo‘naltirilgan shakllar yordamida tashkil etish metodlarini qamrab oladi. Jumladan, klaster usullari, keys-stadi, auksionlar, loyiha usuli, kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi maxsus mashg‘ulotlar, maxsus internet platformalardan foydalanish, elektron kitoblar va interaktiv taqdimotlar tayyorlash singari yondashuvlar shular jumlasidandir. Media savodxonlik jarayonida esa mazkur texnologiyalarning maqsadli tanlanishi hamda didaktik vazifaga

yo'naltirilishi muhim. Masalan, keys-stadi usuli mediamahsulotlar bilan ishlashda juda katta foyda keltiradi, chunki unda talabalar oldindan tayyorlab qo'yilgan keyslar (haqiqiy yoki uydirma voqea, maqola, videorolik va boshqalar) ustida ishlashar ekan, ularni tahlil qiladilar, to'g'ri xulosa chiqaradi, fikr yuritadilar, mediamateriallarni tanqidiy nazar bilan ko'rish ko'nikmasini rivojlantiradilar.

Media savodxonlik jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun maxsus tayyorlangan o'quv-metodik resurslar zarur. Bu resurslar xorijiy tajribalarga asoslanishi, shu bilan birga mahalliy ta'lim muhitiga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Chunonchi, maxsus onlayn platformalarda mediamanbalar bilan ishlash, ularni saralash, manbalarni turli jihatdan analiz qilish metodlari haqida to'liq o'quv qo'llanmalari yoki kurslar tashkil etilishi mumkin. Bunday resurslar talabalarda axborot xavfsizligi, intellektual mulkka nisbatan munosabat, media etika kabi masalalar borasida ham ma'lumotlar beradi. Zero, media savodxonlik faqat axborotni saralash emas, balki axborotdan samarali va axloqiy jihatdan to'g'ri foydalanishni ham nazarda tutadi.


Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish modellari, shu bilan birga, axborot xavfsizligini ta'minlash bilan ham chambarchas bog'langan. Zamonaviy sharoitda turli kiberxavflar, soxta yangiliklar bo'layotgani bois, talabalarni ana shunday axborot tahdidlari oldida shunchaki yopilib olmasdan, aksincha ularni aniqlash, baholash va imkon qadar neytralizatsiya qilish ko'nikmalari bilan qurollantirish lozim bo'ladi.

Bu esa mediasavodxonlik fanini boshqa fanlar bilan integratsiya qilishni talab qiladi. Masalan, huquqiy fanlar bilan hamkorlikda ta'lim jarayonini tashkil etish axborot xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganishga yordam beradi²¹. Shu bilan birga, talabalar axborot huquqi va axborot axloqi bo'yicha ham tushunchalarga ega bo'lishi lozim. Yuqoridagi tadqiqot natijalari asosida Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi (3 -rasmga qarang).

Dissertatsiyaning **“Mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish tajribalarining natijalari va istiqboliy yo'nalishlar”** deb nomlangan to'rtinchi bobida talabalarda media savodxonlikni shakllantirishga doir tajriba-sinov ishining tashkiliy asoslari hamda natijalari bayon etilgan.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi uni maxsus model asosida olib borilganligi, ta'lim-tarbiyaviy ishlarning texnologik yondoshuv, algoritmlash, natijani oldindan belgilash asosida innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlar bilan olib borilganligi, pedagogik shart-sharoitlarning maqbulligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlili, tajriba-sinov maydonchalarining geografik joylashuvi, tarbiyalanganlik darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi va natijaning baholanishi, tanlangan mavzular va metodik materiallarning talabalar ijtimoiylashuvini ta'minlashga bog'liqligi bilan aniqlandi.

²¹ Музаффаров С. МИЛЛИЙ АХБОРОТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ МАЪНАВИЙ ҲАЁТНИНГ ДОЛЗАРБ ВАЗИФАСИ //Научно-просветительский журнал " Наставник". – 2021. – №. 2.



3-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish modeli

Mediasavodxonlik – bu shaxsning turli media resurslaridan samarali foydalanish, axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va yaratish qobiliyatlari majmuidir. Talabalarda ushbu kompetensiyalarni shakllantirish nafaqat ta’lim jarayonida, balki ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi va axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Quyida talabalarining mediasavodxonlik darajasini baholash metodologiyasi, tajriba-sinov jarayonlari va istiqboliy yo’nalishlar batafsil yoritildi.

Mazkur bobning dastlabki qismida oliy ta’lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari uchun zarur bo’lgan uslubiy asoslarning nazariy jihatlarini tahlil qilinadi. Unda mediasavodxonlik tushunchasining vujudga kelish tarixi, talabalarda axborot madaniyatining mohiyati va mazmuni ko’rsatib o’tilgan. Ushbu ko’nikmalar kelajakdagi mutaxassislarining, ayniqsa globallashuv va axborot jamiyati sharoitida muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati uchun muhimdir.

Tajriba-sinov ishlari oliy ta’lim muassasalarida (OTM), jumladan Namangan davlat chet tillari instituti, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Guliston davlat universiteti olib borildi. Tajriba so’nggida olingan yakuniy miqdor ko’rsatkichlari 1-, 2-, 3-jadvallarda keltirib o’tilgan.

1-jadval

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish darajasi bo’yicha tajriba-sinov ishlarining bo’yicha statistik ko’rsatkichlari.

Mezonlar	Tajriba guruhi (201 respondent)						Nazorat guruhi (151 respondent)					
	Yuqori		O’rta		Quyi		Yuqori		O’rta		Quyi	
	T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s	T.a	T.s
1. Ishonchli manbalarni aniqlash qobiliyati	41	103	100	40	60	38	31	41	75	54	45	56
2. Media mazmunini tanqidiy tahlil qilish	40	103	99	62	62	36	30	43	77	52	44	56
3. Axborot qidirish va baholash ko’nikmalari	40	103	100	61	61	37	30	42	76	54	45	55
4. Axborotdan axloqiy foydalanish	42	102	99	61	60	38	31	41	75	54	45	56
5. Raqamli aloqa ko’nikmalari	40	103	100	62	60	36	30	43	76	53	45	55
6. Media xolisligini tushunish	41	103	99	60	61	38	30	41	77	54	44	56
7. Kontent ishlab chiqarish va media yaratish	39	102	102	62	60	37	31	42	75	54	45	55
8. Kiberxavfsizlik xabardorligi	41	102	100	61	60	37	30	41	77	53	44	57
O’rtacha	40	103	101	61	60	38	30	42	76	53	45	56

Izoh: T.a. – tajriba avvalida, T.s. – tajriba so’nggida.

Pedagogik eksperimentning uchinchi davri 2024-2025-o'quv yilida tadqiqot natijasi tahlil qilindi, nazariy jihatdan umumlashtirildi hamda tadqiqot bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi va uslubiy tavsiyalar berildi. O'tkazilgan pedagogik eksperimentni umumlashtirish asosida, Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish uchun uslubiy yondashuvlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o'tkazildi. Bu tizim, dars jarayonida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini samarali rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlar va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Olingan natijalar tahlil qilindi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga oid tushunchalarni shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlandi va amaliyotda qo'llandi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yakunida statistik ko'rsatkichlar taqqoslandi.

2-jadval

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy solishtirma jadvali.

Tajriba guruh	Tadqiqot obyektlari	Yuqori	O'rta	Quyi	Jami
	Namangan davlat Chet tillari instituti	56	24	20	100
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	30	20	11	61	
Guliston davlat universiteti	17	16	7	40	
Jami	103	60	38	201	
Nazorat guruh	Tadqiqot obyektlari	Yuqori	O'rta	Quyi	Jami
	Namangan davlat Chet tillari instituti	10	38	26	74
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti	13	12	17	42	
Guliston davlat universiteti	19	3	13	35	
Jami	42	53	56	151	

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yakunida statistik ko'rsatkichlar taqqoslandi.


Mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari asosida tajriba-sinov ishlarining yakuniy hisob-kitobi amalga oshirildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining yakuniy solishtirma jadvali (son va foizlarda)

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	o'rta	quyi
Tajriba guruhi	201	103 nafar 51 %	60 nafar 30 %	38 nafar 19%
Nazorat guruhi	151	42 nafar 28 %	53 nafar 35 %	56 nafar 37 %

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko‘ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshiriladi, aniqlashtirgan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to‘g‘ri samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko‘rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkoniga ega. Matematik statistik metodning mohiyatiga ko‘ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarni tanlanmalar sifatida belgilanib, baho ko‘rsatkichlari bo‘yicha variatsion qatorlarni hosil qilish lozim bo‘ldi. Bu diagrammada quyidagi ko‘rinishni oldi (4-rasmga qarang).



4-rasm. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning tajriba keyingidagi diagrammasi

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi yuqori va o‘rta ko‘rsatkichlar nazorat guruhi ko‘rsatkichlaridan yuqori ekan.

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun o‘rta qiymatlar, tanlanma dispersiya, variatsiya ko‘rsatkichlari, Styudentning tanlanma mezoni, Styudent mezoni asosida erkinlik darajasi, Pirsonning muvofiqlik mezoni va ishonchli chetlanishlari topildi (4-jadval).

4-jadval

Oliy ta‘lim muassasalarida talabalarining mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tajriba-sinov natijalarining statistik ko‘rsatkichlari

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	K	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,32	1,92	0,5976	0,6419	2,35	3,35	4,88	231	54,46	0,11	0,12

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba–sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichlarini hisoblaymiz.

Bizga ma’lumki, $\bar{x} = 2,32$; $\bar{y} = 1,92$; $\Delta_x = 0,11$; $\Delta_y = 0,12$ ga teng.

Bundan sifat ko‘rsatkichlari:

O‘qitish samaradorligi ko‘rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{yc\delta} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,32 - 0,11}{1,92 + 0,12} = \frac{2,21}{2,04} \approx 1,08 > 1;$$

Bilish darajasini ko‘rsatkichi esa quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\delta\delta\delta} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,32 - 0,11) - (1,92 - 0,12) = 2,21 - 1,80 = 0,41 > 0;$$

Olingan natijalar asosida, o‘qitish samaradorligini baholash mezonini birdan katta qiymatga ega bo‘lishi bilan, shuningdek, bilish darajasi esa baholash mezonining noldan katta qiymatga ega bo‘lishi bilan aniq ko‘rish mumkin. Bu holat, tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zgarishlarni taqqoslashda o‘qitish samaradorligining yaxshilanishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasida tajriba-sinov ishlari nihoyasida tajriba sinflaridagi talabalarning mediasavodxonlik va axborot madaniyatini o‘sganlik darajalari nazorat sinflariga nisbatan 1,12 barobar yuqori, o‘rtacha o‘zlashtirish koeffitsienti 14.1 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqotni mavjud ilmiy-pedagogik va metodik talablarni hisobga olgan holda tashkil etish, uning samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Bu yondashuv, o‘quv jarayonini yanada samarali tashkil etish va natijalarning sifatini oshirish uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratdi.

XULOSA

Talabalarni mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Mediasavodxonlikni rivojlantirish orqali talaba yoshlar axborotni to‘g‘ri tahlil qilish, undan samarali foydalanish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida bu jarayon tarbiya yo‘nalishida markaziy o‘rin tutib, talabalarni jamiyatda maqsadli va ma’suliyatli hayot kechirishga tayyorlaydi. Falsafa fanini o‘rganishda mediasavodxonlik talaba ongida tanqidiy tafakkurni shakllantirib, axborot nashrlarining ilmiy, mafkuraviy yoki siyosiy maqsadiga e’tibor qaratishni talab qiladi. Shu orqali axborot makonida ongli ishtirok etish, ayni paytda jamiyat taraqqiyotida faol bo‘lish mumkin.

2. Axborot madaniyati tushunchasi talaba shaxsining axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va turli media manbalar bilan tanishish jarayonlarini qamrab oladi. Bu madaniyat faqat texnik ko‘nikmalar bilan cheklanmay, balki axborot sari tanqidiy munosabat, ilmiy manbalarni saralash, turli aqidaviy va siyosiy manbalarni adolatli baholashni ham o‘z ichiga oladi. Axborot madaniyatini rivojlantirishda falsafa fanidan foydalanish, talabalarda mantiqiy tahlil, tanqidiy fikrlash, tushunish va ma’nodorlikka e’tibor qaratish kabi jarayonlarni bevosita qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Falsafa fani talaba ongida tanqidiy fikrlash asoslarini shakllantirish,

manbalarni tahlil qilish, haqiqatni izlash kabi ko'nikmalarni chuqurlashtirishda muhim o'rin tutadi. Mediasavodxonlik esa mazkur ko'nikmalarni hayotda amaliy ifodalash imkonini beradi. Ya'ni talabalarda media manbalar orqali kelayotgan axborotni tushunish, shubhali ma'lumotlardan ehtiyot bo'lish, manbalar ishonchliligini aniqlash mexanizmini yo'lga qo'yish kabi amaliy mahorat shakllanadi. Shu bilan birga, falsafiy g'oyalar turli zamonaviy media kontentni anglashda chuqur kontekst beradi.

4. Oliy ta'lim muassasasi talabasi axborotni maqsadli saralash, manba sifati, ishonchliligi va ahamiyatini baholash borasida yaxlit bilimga ega bo'lishi lozim. Bunda tanqidiy fikrlash asosiy mexanizm sifatida xizmat qiladi: talaba axborot manbalaridagi ehtimoliy soxtalikni aniqlash, ma'lumotni ko'p tomonlama tahlil qilish, shoshilinch xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Falsafa fanining logika, epistemologiya, ontologiya kabi yo'nalishlari talaba tafakkurida axborot egallash jarayonini ilmiy muhokamaga solish imkonini beradi.

5. Zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik maqsadlariga erishish uchun virtual kurslar, onlayn seminarlar, interaktiv dasturlar hamda maxsus media kontentlardan foydalanilmoqda. Mazkur texnologiyalar talaba ongida axborot bilan ishlash ko'nikmasini kuchaytirib, ularni mustaqil izlanish, jurnalistik tahlil elementlariga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, talaba axborotni turli rakursdan ko'rish, tushunish va transformatsiya qilish jarayonini interaktiv uslublar orqali tezroq o'zlashtiradi.

6. Mediasavodxonlik tarbiyasida axborot makonida etika meyorlarini uzviy ravishda singdirish lozim. Falsafa axborot faoliyatida axloqiy tamoyillar, jamoaviy fikrlash, insoniylik qiymatlarini saqlashni ta'kidlaydi. Shu sababli axborotni tarqatish, sharhlash yoki qabul qilishda milliy, umuminsoniy, islomiy yoki boshqa dunyoqarash mezonlari vujudga kelishi mumkin. Bu meyorlarga amal qilish talaba shaxsida axborot munosabatida mas'uliyatni kuchaytirib, jamiyatda axborot oqimining sog'lom bo'lishiga hissa qo'shadi.

7. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mediasavodxonlik jarayonini mustahkamlaydi, chunki talabalarda nafaqat texnik yoki mantiqiy, balki ma'naviy yo'naltirilgan fikrlash shakllanadi. Falsafa tushuncha va tamoyillari asosida axborot bilan ishlash, bu axborotni jamiyat manfaatlari yo'lida eng to'g'ri ifoda qilish yoki qo'llash xislatlari ta'minlanadi. Talabalar axborot xar qanday ko'rinishda taqdim etilganda ham uning mohiyatini, maqsadini anglay olishi va unga nisbatan maqsadli munosabat ifoda etishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini tizimli ravishda shakllantirish kelgusida milliy axborot fazosining sifat jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi. Talabalarda axborot texnologiyalaridan eng samarali foydalana olish, imkoniyat va xatarlarni birday ravishda baholash, jamoat fikrini asosli ravishda to'g'ri yo'naltirish malakasi vujudga keladi. Shu orqali falsafa fanining ilmiy nazariy asoslari hamda universal axborot etikasi qobiliyati kengayadi va ilmiy-pedagogik jarayonlar samaradorligi oshadi. Mediasavodxonlikka e'tiborning kuchayishi esa har bir talaba ongida erkin fikrlash, ilmiy-tahliliy yondashuv va ma'suliyat hissini tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishi doirasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mediasavodxonlikni o'quv jarayoniga integratsiya qilish. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mediasavodxonlik darajasini oshirishda eng muhim qadamlardan biri – mediama'lumotlar bilan ishlash ko'nikmalarini muntazam ravishda umumiy o'quv jarayoniga integratsiya qilishdir. Bunda, birinchi navbatda, har bir fan doirasida axborotni izlash, saralash va tahlil qilish uchun alohida mashg'ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

2. Ilmiy-amaliy o'quv dasturlarini ishlab chiqish. Talabalarda mediasavodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish uchun maxsus ilmiy-amaliy dasturlar ishlab chiqish birinchi galdagi vazifalardan biridir. Bunda fanlararo yondashuvni ta'minlash eng muhim shartlardan hisoblanadi. Ya'ni, falsafa, jurnalistika, psixologiya, pedagogika kabi yo'nalishlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik yaratish orqali talabalarda axborot bilan muomala qilishda bir-birini to'ldiruvchi ko'nikma va malaka shakllanadi. Masalan, falsafa bo'yicha mediasavodxonlik darslarida jurnalistikaning axborot izlash, tekshirish va obyektiv yoritish uslublarini hamda psixologiya fanining axborotni idrok qilishdagi omillari bilan bog'lanib ketishi maqsadga muvofiq.

3. Axborot tayyorlash va tahlil qilish yo'nalishida mashg'ulotlar tashkil etish. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati talabalarda shakllanishi uchun ularni axborotni mustaqil ravishda tayyorlash va tahlil qilish jarayonlariga jalb etish zarur. Bu jarayonda falsafa fani juda muhim o'rin tutadi, chunki falsafiy yondashuv axborotni idrok qilishda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va holatlarni chuqur anglash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, talabalar maxsus mashg'ulotlar yoki seminarlar davomida aktual mavzular bo'yicha o'zlari axborot materiallarini to'plash, tahlil qilish va taqdim etishlari mumkin. Shunda talabalar axborot manbalarini tanlashdagi mezonlar, ma'lumotlar ishonchliligini baholash, statistik ko'rsatkichlar va dalillarning manbasini aniqlash kabi ko'nikmalarni amalda egallab borishadi.

4. Axborot madaniyatini shaxsiy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirish. Talabalarda axborot madaniyati va mediasavodxonlikni rivojlantirish jarayonini ularning shaxsiy taraqqiyoti bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki axborot madaniyati faqatgina ma'lumotni saralash yoki tasdiqlash bilan cheklanib qolmaydi, balki shaxsiy qadriyatlar, axloqiy mezonlar, jamoaviy munosabatlar bilan chambarchas bog'lanadi. Falsafa fanida «shaxs», «ezgulik», «ma'rifat» kabi tushunchalarni o'rganish jarayonida talabalar axborotdan foydalanish odobi, onlayn etika, axborot xavfsizligi kabi masalalarda ham bilimlarini chuqurlashtirib olishi mumkin. Natijada, axborotni tanqidiy baholashdan tashqari, uni insonparvarlik, adolat, xolislik prinsiplaridan kelib chiqib qo'llash ko'nikmasi shakllanadi.

5. Onlayn platforma va media vositalardan samarali foydalanish. Zamonaviy raqamli davrda mediasavodxonlikni rivojlantirishda onlayn platformalar, turli ijtimoiy tarmoqlar va media vositalardan samarali foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida falsafa fanini o'qitish jarayonida, masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi platforma yordamida talabalarga elektron adabiyotlar, ilmiy maqolalar, videokontentlar va

munozara forumlari taqdim etilishi mumkin. Bu bilan talabalar nafaqat an'anaviy auditor mashg'ulotlarida, balki onlayn muhitda ham tanqidiy fikrlash ko'nikmasi va axborotni saralash mahoratini rivojlantirib boradi. Shu bilan birga, talabalarni har bir manbaning ishonchliligini tizimli tarzda baholashga yo'naltirish lozim.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВАНИИ НАУЧНОГО
СОВЕТА ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 ПРИ НАМАНГАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**НАМАНГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

АБДУХОЛИКОВ НАСИБА АЛИЖОНОВНА

**ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ
МЕДИАГРАМОТНОСТИ И ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ
СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ (НА
ПРИМЕРЕ ФИЛОСОФИИ)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.3.DSc/Ped1143

Диссертация выполнена в Наманганском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Учёного совета (www.cspu.uz.ilmiy-kengash) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Болтаева Мохичехра Доктор педагогических наук, доцент,
Официальные оппоненты:	Собирова Махбуба Юсубджонова Доктор педагогических наук, профессор Сиддиков Илёсжон Бахромович Доктор философских наук, профессор Акрамова Гулбахор Ренатовна Доктор педагогических наук, профессор
Ведущая организация:	Андижанский государственный университет

Защита диссертации состоится в _____ часов «_____» _____ 2025 года на заседании разового Научного совета PhD. _____ по присуждению учёной степени при Наманганском государственном институте иностранных языков имени Исаакхона Ибрата. (Адрес: _____, город Наманган, массив «Юксалиш», дом _____. Тел.: (998) 69 _____; факс: (998) 69 _____; e-mail: info@namsifl.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного института иностранных языков (зарегистрирована под номером _____). (Адрес: _____, город Наманган, массив «Юксалиш», дом _____. Тел.: (998) 69 _____; факс: (998) 69 _____; e-mail: info@namsifl.uz).

Автореферат диссертации был распространён «» _____ 2025 года.
(Протокол реестра № _____ от «» _____ 2025 года).

М. М. Якуббаев
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор педагогических наук (DSc)

А. В. Эрмирзаев
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам, доцент

С. А. Мисиров
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней,
доктор педагогических наук (DSc),
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской (DSc) диссертации)

Актуальность и необходимость темы. Медиаграмотность и информационная культура приобретают особое значение в социально-духовной жизни, учебной деятельности и личностном развитии студенческой молодежи. Широкое распространение интернета, социальных сетей и цифровых платформ требует развития у студентов навыков критического восприятия информационных потоков, защиты от ложной и манипулятивной информации, а также эффективного использования информационных технологий. В связи с этим, актуальность данного исследования обусловлена необходимостью глубокого анализа взаимосвязи между цифровым информационным пространством и духовным иммунитетом молодежи, а также интеграции этих аспектов в педагогический процесс. Следовательно, разработка теоретико-методических основ развития медиаграмотности и информационной культуры в высших учебных заведениях является важным условием повышения качественных показателей современного образования, развития творческого мышления молодежи и их успешной адаптации к информационному обществу.

В мире проводятся масштабные исследования, международные проекты и научные изыскания по развитию медиаграмотности и информационной культуры. Прежде всего, особое значение имеет концепция "Media and Information Literacy", разработанная ЮНЕСКО. Эта концепция направлена на обучение молодежи самостоятельному поиску, анализу, оценке информации и эффективному ее использованию. В рамках программы "Digital Education Action Plan" Европейского Союза проводится последовательная политика по развитию цифровых компетенций студентов, включая медиаграмотность. В США организацией "Center for Media Literacy" разработаны специальные методические пособия для учащихся и студентов. В азиатских странах, в частности, в Японии и Южной Корее, развитие медиаграмотности и информационной культуры рассматривается как неотъемлемая часть национальной образовательной политики. Например, в Южной Корее через программу "Smart Media Education" студентов обучают навыкам поиска и проверки информации. В частности, в таких развитых странах, как США, Канада, Норвегия, Германия, Швейцария, Франция и Сингапур, особое внимание уделяется созданию диагностико-профилактической системы самозащиты студентов от информационных угроз в цифровой образовательной среде и выведению научных исследований в этой области на новый уровень.

В Узбекистане в последние годы большое внимание уделяется вопросу развития медиаграмотности и информационной культуры среди студентов. В стратегии "Цифровой Узбекистан – 2030" и "Концепции развития науки до 2030 года" определены важные задачи по широкому внедрению информационно-коммуникационных технологий, повышению цифровых навыков молодежи, развитию критического мышления и способности оценивать информацию в интернет-пространстве. Поэтому актуальными

становятся "задачи по своевременному предоставлению объективной информации в средствах массовой информации, социальных сетях для предотвращения распространения ложных сведений, повышения культуры использования информационно-коммуникационных средств"²². Активное использование онлайн-платформ и цифровых библиотек в образовательном процессе в университетах не только знакомит студентов с широкими информационными потоками, но и учит их анализировать, сортировать и критически оценивать информацию. В рамках IT-парков и проекта "Один миллион программистов" студенты получили возможность эффективно использовать медиа-ресурсы, разрабатывать новые программы и повышать цифровую грамотность. Вместе с тем, в некоторых высших учебных заведениях проводятся специальные занятия по медиаграмотности, экспериментальные проекты и исследовательские работы.

Настоящее исследование в определенной степени служит выполнению задач, обозначенных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан: от 28 января 2021 года № УП-60 "О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы", от 5 октября 2020 года № УП-6079 "Об утверждении стратегии "Цифровой Узбекистан - 2030" и мерах по ее эффективной реализации", от 29 октября 2020 года № УП-6097 "Об утверждении концепции развития науки до 2030 года", от 1 апреля 2021 года № ПП-5047 "О мерах по дальнейшему совершенствованию государственного управления в сфере государственной политики в области науки и инновационного развития", а также в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 3 декабря 2018 года № 979 "О мерах по внедрению эффективных механизмов внедрения перспективных достижений научной и научно-технической деятельности", от 27 августа 2021 года № 545 "О мерах по организации системы управления научной и инновационной деятельностью" и других нормативно-правовых документах по данной теме.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления I "Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства" развития науки и технологий республики.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации. Зарубежные исследования по медиаграмотности и информационной культуре имеют широкий охват, их можно рассматривать в рамках нескольких научных школ. В частности, в этой области можно привести в качестве примера Конвенцию "О киберпреступности", рекомендации Парламентской Ассамблеи Европейского Союза "О внедрении безопасного интернета и онлайн-ресурсов для несовершеннолетних", законы Германии "О защите учащихся", Литвы "О защите несовершеннолетних от негативного влияния

²² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони// <https://lex.uz/docs/5841063>

средств массовой информации"²³. ЮНЕСКО подчеркивает, что концепция медиа-информационной грамотности дает гражданам всех стран мира возможность в полной мере пользоваться этим основным правом человека. В публикациях ЮНЕСКО о медиа и информационной грамотности подчеркивается, что "граждане, освоившие медиа и информационную грамотность: 1) будут обладать способностью получать, оценивать, создавать и распространять информацию и медиаконтент, используя соответствующие технологии"²⁴.

